

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIIY TARMOQNING O'RNI

Eshbo'tayeva Ra'no

Guliston davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18709598>

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati haqida ortiqcha ta'rif berishga hojat yo'q. Negaki o'zaro muloqotda, biznesda, yangi mijozlar topishda, mahsulot sotuvini oshirishda, biror soha bo'yicha mutaxassis tanlovida ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish strategiyasini yo'lga qo'yib olish kerak bo'ladi. Bundan tashqari boshqalar bilan bog'lanish va axborot almashinuvi, masofaviy ta'lim, telecommuting va ijara, masofaviy ish faoliyatlarini olib borishning osonligi, internet orqali savdo qilish imkoniyati, tibbiyot sohasida ishlab chiqarish, virtual o'yinlar va qiziqishlar, media va ijtimoiy tarmoqlarda o'zaro aloqalar kabi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalar jamiyatni demokratlashtirishga, biznesni kengaytirishga va global hamkorlikka undaydi, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirib, harajatlarni kamaytiradi. Turli xil kelib chiqishi va yosh guruhlarini qamrab olgan milliardlab odamlar ushbu platformalarni hayotlarining ajralmas qismi sifatida qabul qilishadi. Quyida o'rtacha odam va ularning ijtimoiy tarmoqlardan har kuni foydalanishi bo'yicha 2023 yilgi statistik ma'lumotlar keltirilgan: Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni: Dunyo bo'ylab 4.8 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bor. Bu dunyo aholisining 59.9% ni va barcha internet foydalanuvchilarining 92.7% ni tashkil qiladi. Eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar: Facebook, You tube, WhatsApp va yoshlar orasida eng keng foydalaniladiganlardan biri bu Instagram. Ko'p yoshlar shu kabi platformalardan shunchaki musiqa tinglash, har xil turdagi qiziqarli, kayfiyat ko'taruvchi video roliklarni tomosha qilish bilan o'zlarining qimmatli vaqtini sarflayotganini payqamay qolishyapti. Ammo internetdan shunchaki vaqt o'tkazish uchungina emas, balki uning orqasidan daromadga chiqish ham mumkin. Hozirda internet jadal rivojlangan sari insonlarning internet savodxonligi ham ortib bormoqda.

Biz Instagram ijtimoiy tarmog'i orqali qanaqa qilib daromadga chiqishimiz mumkin. Instagramda pul topishning birinchi yo'li bu albatta SMM. SMM - bu Social Media Marketing ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda savdo. Bu tarmoqda siz tavarlar va xizmatlarni ijtimoiy tarmoqlarda tanitasiz va uni yurg'izasiz. Ijtimoiy tarmoqlarda marketing juda effektiv qurol bo'lib, uning yordamida bloglardan, saytlardan foydalanuvchilarni jalb etish mumkin. Bunda har xil biznes do'kon, go'zallik salon, kafe va restoranlar, shaxsiy brendlarni Instagram sahifasida to'g'ri yurg'izib berasiz. Post, storislar joylaysiz, kontent plan tuzasiz. Target ya'ni reklama yoqasiz. Keyin esa biznes yoki shaxsiy brend egalari sizga bu ishingiz uchun pul to'lashadi. Boshlang'ich SMM mutaxassislar har bitta loyihadan 250-300\$ dan boshlab daromad oladi.

Ikkinchi yo'nalish bu- Mobilografiya ya'ni smartfon orqali

professional darajada syomka va mantaj qilishdir. Bunda Mobilograflar sifatli va qiziqarli kadrlarni hech qanday kameralarsiz o'zlarining qo'l telefonlari orqali suratga oladi va uning ustida ishlaydi. Boshlang'ich Mobilograflar bitta vedioni 15-20\$ dan olishadi.

Uchinchi yo'nalish bu- Story maker bu asosan shaxsiy brend egalari

uchun stories yaratib beradi. Kontent plan tuzadi, ssenariy o'ylab topadi. Bu kasb orqali siz 300-310\$ gacha daromadga chiqsanggiz bo'ladi. Bu kasbni eng yaxshi tomoni shundaki, bu

yo'nalishda 100% uyda o'ttirgan holda ya'ni masofadan turib ishlashingiz mumkin. Yana bir Instagram orqali pul topishning yo'nalishlaridan biri bu- Target. Ular biznes yoki shaxsiy sahifalar uchun reklama yoqib berishadi va shu orqali daromadga chiqishadi.

Ijtimoiy tarmoq jamiyatga katta foyda keltirsa-da, ularning salbiy ta'sirlari ham jiddiy muammo tug'dirmoqda. Bu ta'sirlar psixologiya, ijtimoiy va axloqiy jihatlarni qamrab oladi. Instagram va Tik Tok da "Mukammal hayot" ko'rsatilishi o'zini past baholashga olib keladi. Bundan tashqari kuniga 5-7 soatlab smartfon bilan o'tkazish uyqu siklini buzadi. Doimiy bildirishnomalar miya konsentratsiyasini 40 % ga pasaytiradi. Yuzma yuz muloqotning o'rniga virtual aloqa tarzda muloqotni davom ettiradi. Shuningdek, yoshlar nutqi ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, rasmiy bo'lmagan shaklga o'tadi, bu adabiy tilni zaiflashtiradi. Biroq, milliy kontentni ko'paytirish orqali o'zlikni saqlash mumkin.

Globalashuv jarayonlarida fan texnika yutuqlari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda ulardan faqat g'arazli niyatda ham foydalanuvchilari ham ko'payib borayotganligi ayniqsa achinarli holat hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida, axloqsizlik, fahsh, buzuvchilikni targ'ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilishi yolg'on, mish-mish, buzg'unchi g'oyalar, soxtalashtirish va uydirmalar. Ayrim foydalanuvchilar o'z sahifalariga soxta rasmlar qo'yib olishi, ma'lumotlarni soxtalashtirishi, asosi yo'q, yolg'on xabarlarini tarqatishi, bir guruhdagi kishilar o'zlariga teskari fikr bildirgan tarafga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishlari, faqat o'zlarining fikrlarini haq deb, boshqalarning fikrini mensimasliklari bunga misol bo'ladi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari aksariyatida maqtanchoqlik, barchaning e'tiborida, diqqat markazida bo'lish xohishi kuchayib, borishi natijasida o'zidan boshqa hech kimni tan olmaslik, o'zini hammadan ustun ko'rish va boshqa bir qancha salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi bilan ham salbiy tomonlarini ham kuzatish mumkin. Bundan tashqari turli terroristik oqimlarning g'oyalari va mafkuralarini yoshlar ongiga singdirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanilib kelinmoqda. Bunday oqimlar eng avvalo dunyoqarshi tor va ma'naviyati qashshoq kishilarni o'z domiga tortib bormoqda. Shuningdek, Xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning ushbu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini qondirishni bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ayrim nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan dunyoning ko'plab mamlakatlarida turli vayronkor g'oyalarni o'zida aks ettirgan "o'yinlar" ham moliyalashtirilmoqda. Ular shu yo'l orqali hozircha hech kim e'tibor bermayotgan "ong va beixtiyorlik" nisbatlari to'g'risida, inson psixikasidagi tushunarsiz holatlarni o'z foydalariga og'dirishga urinishayotganini ko'plab davlatlarning xavfsizlik xizmatlari qayd etishmoqda. Natijada hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSh Strategik tadqiqotlar institutining ma'lumotiga ko'ra, axborot mahsulotiga sarflangan mablag' yoqilg'i-energetika sarflanganidan ko'ra bir necha barobar ko'p foyda beradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bo'sh vaqtlarini faqatgina shu kabi ijtimoiy tarmoqlarda emas balki yuqorida ko'rsatilib o'tilgan yangi kasblarni o'rganib foydaga chiqishlari mumkin. Bu bilan yosh avlod 24 soat ijtimoiy tarmoqlarda o'tirsini degani emas. Albatta jonli, haqiqiy va real muloqot o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Biroq, ijtimoiy tarmoqdan keraksiz ma'lumotlarga sarflagandan ko'ra shu kabi sohalarni o'zlashtirgani afzal. Ijtimoiy tarmoqni samarali boshqarish uchun esa qonunlar va tarbiya zarur. Yoshlarning ruhiy salomatligini monitoring qilish, maktablarda media savodxonlik darslarini joriy etish va oilaviy muloqotni

kuchaytirish salbiy ta'sirlarni kamaytiradi. O'zbekistonda bu jarayonlar raqamli iqtisodiyotni, ma'naviy-ma'rifiy sahifalarni rivojlantirish orqali jamiyatni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

